



**Received:** May 11, 2025  
**Accepted:** June 23, 2025  
**Available online:** June 25, 2025

## Muhayyo Xakimova

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### O'ZBEK TILIDA ABSTRAKT NOMLAR TIZIMI VA UNING TASNIFI

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi abstrakt nomlarning tasnifi amalga oshirilgan. Unda avvalo tasnif asoslari aniqlangan, jahon tilshunosligidagi mavjud tajribalar o'rganilgan. Dastlab o'rganish obyekti abstrakt ot, abstrakt sifat va abstrakt fe'llarga ajratilgan. Sifat so'z turkumiga oid so'zlar noan'anaviy tarzda konkret va abstraktga ajratilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi abstrakt nomlarni tizim sifatida o'rganish, uning semantik tarkiblanishlarini aniqlash, shu tariqa nafaqat ot so'z turkumida, balki sifat turkumida ham abstrakt so'zlar borligini isbotlashdan iborat. Ushbu tadqiqot o'zbek tili leksik sathida abstrakt nomlar millat tafakkur darajasini ifodalovchi muayyan katta tizim ekanligini ochiqlashga qaratilgan.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutiladi: o'zbek tilining ot, sifat va fe'l so'z turkumlarida abstraktsiyaning mavjudligini aniqlash, har bir turkumdagi abstraktsiyaning o'ziga xosligini o'rganish, ajratilgan guruhlarini muayyan tizim sifatida tasnif qilish. Tasnif jarayonlarida har bir bo'g'inda ajratilgan guruhlarining tarkibini aniqlashga, semantik xususiyatlariga e'tibor qaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida lingvistikaning tavsiflash, tasniflash, sistem, komponent tahlil metodlaridan, konseptual-kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Ushbu tadqiqotda abstrakt sifatlar muayyan o'ziga xosliklari asosida alohida guruhni hosil qilishi dalillangan va o'zining ichki tarkiblanishlariga egaligi aniqlangan. Konkret

## Muhayyo Khakimova

Professor, Doctor of Sciences in Philology (DSc)  
Tashkent State University of the Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: xakimova197621@gmail.com  
ORCID iD: 0000-0002-2002-7978

### THE SYSTEM OF ABSTRACT NAMES IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS CLASSIFICATION

#### ABSTRACT

This article classifies abstract nouns in the Uzbek language. It first defines the basis for classification and examines existing experience in global linguistics. Initially, the object of study was divided into abstract nouns, abstract adjectives, and abstract verbs. Words belonging to the category of adjectives are traditionally divided into concrete and abstract.

The aim of the study is to examine abstract nouns in the Uzbek language as a system, to identify their semantic content, thereby proving the existence of abstract words not only in the nominative but also in the adjectival series. This study aims to reveal that, at the lexical level of the Uzbek language, abstract nouns represent a large system that expresses the level of national thinking.

To achieve this goal, the following tasks are planned: identifying the presence of abstraction in the noun, adjective, and verb categories of the Uzbek language, studying the uniqueness of abstraction in each category, and classifying the identified groups as a specific system. In the classification process, special attention is paid to identifying the composition of the groups selected at each stage and focusing on their semantic features.

The research used methods of description, classification, systematic and component analysis of linguistics, and methods of conceptual-cognitive analysis.

This study proves that abstract adjectives form a separate group based on certain characteristics

va abstrakt belgilarni ifodalovchi sifatlarni ta'lim bosqichlarida sifat so'z turkumining ma'noviy guruhlari sifatida ajratish mazkur turkumga xos so'zlarning semantik mohiyatini yanada to'liqroq ochishga imkon berishi isbotlangan. O'zbek tilida "harakat", "munosabat", "belgi", "holat" ma'noli abstrakt nomlar guruhlari ajratilib o'rganilgan. Ajratilgan har bir guruhdagi so'zlarda abstraksiya darajalari qanday omillarga bog'liq ekanligi tadqiq qilingan.

Xulosalarda esa abstrakt otlarda «predmet» arxisemasi mavjud bo'lmagani holda, "harakat", "munosabat", "belgi", "holat", "vaqt" kabi semalar mavjud bo'lishi qayd qilingan. O'zbek tilida "belgi" va "holat" ma'noli abstrakt nomlar guruhlarning har biri alohida tizim bo'lib, ichki tarkiblanishga egaligiga e'tibor qaratilgan. Abstrakt nomlarda semantik neytrallashtirish jarayonlarining ilmiy asoslarini xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** abstraksiya, abstrakt nom, abstrakt ma'no, konkret ma'no, tasniflash, tasnif asosi, ma'noning neytrallashtirishi, umumlashtirish, semantik struktura, paradigma.

and have their own internal structure. It has been proven that the identification of adjectives expressing concrete and abstract features as semantic groups of the dictionary at the stages of formation allows for a more complete disclosure of the semantic nature of words belonging to this class. In the Uzbek language, groups of abstract nouns with the meanings "action," "relation," "feature," and "state" have been identified. The factors that determine the levels of abstraction in words in each identified group were studied.

The conclusions note that in abstract nouns, in the absence of the archiseme "object," there are semes such as "action," "relation," "attribute," "state," and "time." In the Uzbek language, each of the groups of abstract names with the meanings "feature" and "state" represents a separate system focused on possessing internal content. The scientific foundations of the processes of semantic neutralization in abstract names are summarized.

**Key words:** abstraction, abstract noun, abstract meaning, concrete meaning, classification, basis of classification, neutralization of meaning, generalization, semantic structure, paradigm.

## KIRISH

Abdulla Avloniy to'g'ri ta'kidlaganidek, "har bir millatning millat ekanligini ko'rsatib beruvchi oinai jahoni uning tili va adabiyotidir" [Avloniy, 1992]. Darhaqiqat, til millatning har tomonlama o'ziga xosligini aks ettiruvchi in'ikos shakli. Binobarin, barcha tillarda mazkur tilda gaplashuvchi xalqning o'ziga xos yashash falsafasini aks ettiruvchi abstrakt so'zlar mavjud.

Lisoniy-falsafiy yo'nalishdagi ishlarga S.Shaumyan [Shaumyan, 2002], L.O.Cherneykoning [Cherneyko, 1997] tadqiqotlarini misol qilish mumkin. E.I.Kryukova [Kryukova, 1987], E.B.Nazarova [Nazarova, 1999], E.X.Xabibulinalarning [Xabibullina, 1989] ilmiy ishlarida abstrakt so'zlarning yasaliishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan bo'lsa, O.L.Ivashenko [Ivashenko, 2002], A.N.Doborovich [Doborovich, 2002], A.I.Yandiyeva [Yandiyeva, 2010], A.Setti va N.Karamellilarning [Setti, Caramelli, 2005] ilmiy tadqiqotlari esa abstrakt so'zlarning konseptual tadqiqiga oiddir.

A.Vejbiskaya [Vejbiskaya, 1986], S.Pavlina [Pavlina, 1997] kabi olimlarning tadqiqotlari leksik-semantik yo'nalishdagi ishlardir. Oxirgi o'n yillikda semantikaga oid aksariyat tadqiqotlar kognitiv aspektida olib borilmoqda.

O'zbek tilshunosligida D.Abdullayeva "O'zbek tilida antisemiya» nomli dissertatsiyasida turkumlararo qarama-qarshi ma'no anglatuvchi so'zlar munosabatini tahlil qilish jarayonida abstraksiya hodisasiga to'xtalib, abstrakt nomlar ot va sifat turkumlari o'rtasida antisemiyaning shakllantirishini ta'kidlaydi [Abdullayeva, 2010].

M.Umurzoqova abstrakt otlarga segment qurilmalarni shakllantiruvchi vosita sifatida munosabat bildiradi [Umurzoqova, 2019]. M.Qurbonova o'zbek bolalar nutqi tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishida mavhum so'zlarning maktab o'quvchilari lisoniy ongida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlovchi tajriba natijalari keltirilgan [Qurbonova, 2014].

Ma'lumki, abstrakt leksikani nafaqat *baxt*, *quvonch* kabi ot, balki *aqli*, *odobli* kabi sifat, *o'ylamoq*, *anglamoq* kabi fe'llar ham tashkil etadi. Shu tarzda tilshunoslikda abstrakt otlar bilan birga abstrakt sifat va abstrakt fe'llar ham ajratiladi.

Abstrakt fe'llar nojismaniy xarakterdagi, ya'ni bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan harakat, holatlarni ifodalaydi. N.A.Pilipenkoning ta'kidlashicha, fe'l turkumida abstraksiyaning yana bir ko'rinishi mavjudki, abstrakt otlar bilan semantik qurshovdagi konkret fe'llarning ma'nosi ham abstraktlashadi [Pilipenko, 2001]. Masalan, ma'nosiga ko'ra konkret hisoblangan *keldi* fe'li *baxt*, *quvonch*, *fikr*, *o'y* kabi abstrakt otlar qurshovida abstrakt ma'no kasb etadi: *baxt keldi*, *fikr keldi*.

### TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda dialektikaning bilish nazariyasi, tilshunoslikning tavsifiy, sistem, komponent tahlil metodlaridan, konseptual-kognitiv, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Abstrakt leksikani tasniflash uchun dastlab uni boshqa semantikali birliklardan ajratib olish zarur. Bu birlamchi vazifani amalga oshirish uchun abstrakt ma'noli nomlarning umumiy xususiyatlarini aniqlab, uni tavsiflash lozim. Tadqiqotning ilk bosqichida tilshunoslikning maxsus metodlaridan biri bo'lgan tavsiflashdan foydalanildi.

Tavsiflangan, o'ziga xos xususiyatlari ajratilgan abstrakt nomlar ikkinchi bosqichda alohida guruh sifatida umumlashtirildi. Umumlashtirish jarayonida muayyan umumiy belgi ostida bir turdagi birliklar to'planadi va ularning o'ziga xos belgilari e'tibordan soqit qilinadi. Bu jarayonda dialektikaning umumlashtirish va ajratish kabi umumfan metodlariga tayanildi.

Ilmiy maqolada bir paradigmaga to'plangan abstrakt nomlar tizim sifatida tadqiq qilindi va bu jarayonda sistem-struktur tilshunoslikning metod va ko'rsatmalaridan keng foydalanildi. Xususan, paradigmaga qo'yilgan talablar, tasniflash metodlari asosida tizim birliklari pog'onali guruhlandi.

Tasniflangan har bir guruhning tarkibini aniqlash uchun, ma'no xususiyatlarini aniq tadqiq qilish maqsadida komponent tahlil usulidan keng foydalanildi. Ma'lumki, komponent tahlil usuli semantik strukturani semalar darajasigacha ajratishga, shu tariqa muayyan leksik-semantik guruhdagi sememalarning arxisemasini, umumiy, farqli semalarini hamda ma'no ko'lamini va taraqqiyotini aniqlashga yordam beradi.

Abstrakt so'zlar xalq milliy tafakkur darajasini belgilovchi birliklar ekanligi maqolada ochib beriladi. Bunday xulosalarga kelish uchun antoposentrik tilshunoslikning konseptual tahlil, lingvomadaniy tahlillaridan foydalanish zarur. Ilmiy metodlar tadqiqotning maqsadi emas, unga yetaklovchi yo'l bo'lishi lozim degan fikrda, ilmiy maqsadga erishish uchun tadqiqotning har qadamida an'anaviy va

zamonaviy metodlardan unumli foydalanishga harakat qilindi.

## NATIJA VA MULOHAZALAR

“Asosiy falsafiy antinomiya hisoblangan abstraktlik/konkretlik nomlar sistemasida abstraktlik/konkretlik, belgi sistemasida baholash/deskriptiv, harakat sistemasida jismoniy/nojismoniy lisoniy oppozitsiyasigacha torayib boradi” [Cherneyko, 1997].

Ushbu tadqiqotimizda abstrakt otlarni, abstrakt sifatlarni abstrakt nom ostida o‘rganishga harakat qildik. Zero, abstrakt fe’llar o‘zbek tilshunosligida boshqa nuqtayi nazardan bo‘lsa-da, o‘rganilgan [Rasulov, 1989]. Fe’llarning abstrakt holat va harakatlarni nomlashi tilshunoslik uchun yangilik bo‘lib, alohida tadqiqotlarning o‘rganish obyekti bo‘lishi lozim.

Ot so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlaridan farqli o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ma’noviy guruhlarining ko‘pligidir [Rahmatullayev, 200]. Chunki cheksiz va turfa olam, besarhad inson tafakkurining tashkil etuvchilarini nomlash natijasi o‘laroq ot so‘z turkumidagi so‘zlar ham bir-biridan turli jihatlar bilan farqlanadi va o‘ziga xos belgilari asosida alohida guruhlarini shakllantiradi.

Shunday guruhlardan biri *yaxshilik, orzu, umid, ma’naviyat, baxt, shodlik, farosat* kabi abstrakt otlardir. Abstrakt otlar bir qator o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Abstrakt otlar obyektidan ajratilgan belgini alohida substansiya sifatida nomlaydi. Ular atayotgan mohiyatlar bevosita kuzatishda berilmagan, aqliy bilish orqali anglanadigan gnoseologik, nomoddiy, shaklga, makonga va chegaraga ega bo‘lmagan mohiyatlardir. Abstrakt otlarda “predmet” arxisemasi mavjud bo‘lmaydi. Ularning semantik strukturasi konkret nomlarda uchramaydigan “belgi”, “holat”, “harakat”, “munosabat” kabi semalar mavjud bo‘ladi.

Abstrakt otlar “ajratilganlik”, “kuzatishda berilmaganlik” integral semalari asosida alohida leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Mazkur guruhning o‘ziga xosliklaridan biri shundaki, elementlarining tarkibi bir jinsli emas. Shunga ko‘ra, jahon tilshunosligida abstrakt nomlarni tasniflashning turlicha ko‘rinish va tizimlari mavjud. Tasniflashning har bir turida har xil metod va omillarga tayaniladi.

Abstrakt otlarni tasniflashdagi eng dastlabki urinishlar ulardagi so‘z yasali sh asosiga ko‘ra o‘tkazilgan. Ma’lumki, abstrakt otlarning salmoqli qismi yasama so‘zlarga to‘g‘ri keladi. So‘z yasali sh asosiga ko‘ra abstrakt otlar fe’llardan yasalgan (izlanish, sevinch), sifat va ravishdan yasalgan (donolik, tezkorlik), otdan yasalgan (do‘stlik) abstrakt otlarga bo‘linishi mumkin. Abstrakt otlarni yana tub va yasama so‘zlarga ajratish ko‘plab ishlarda uchraydi [Komarova, 1986].

Tilshunoslikning umumiy nazariyasiga oid ishlarda ham, abstrakt nomlarga oid maxsus tadqiqotlarda ham mazkur leksik guruh elementlari ma’no nuqtayi nazaridan bir jinsli, bir xil tarkibli emasliklari qayd etiladi. Deyarli ko‘plab tasniflarda, asosan, “harakat”, “holat”, “munosabat”, “xususiyat”, “hodisa” ma’nosini anglatuvchi abstrakt otlar ajratiladi. Qayd etib o‘tish joizki, abstrakt otlar ustida o‘tkazilgan barcha tasniflar turli-tuman bo‘lib, 20 dan ortiq tasniflarni tahlil qilish natijasida bir xil tasnif kuzatilmadi. Tasniflardagi o‘xshash belgilar esa sifat, harakat, holat, ba’zida hodisa, munosabat, tuyg‘u nomlariga to‘g‘ri keladi. Abstrakt nomlarni tasniflashdagi

har xilliklar mazkur soʻzlarning oʻziga xos pragmatikasi bilan ham bogʻliq boʻlishi ham mumkin.

A.A.Ufimseva abstrakt nomlarni semantik tasniflar ekan, 3 ta yirik guruhni ajratadi:

1. Umumiy nomlar. *Narsa, substansiya, modda, holat* kabi desemantizatsiyalashgan nomlar guruhi.

2. a) tur maʼnosini ifodalovchi tushunchalar nomi;

b) predmetlashgan belgi, xususiyat va hodisalar nomi.

3. Ilmiy tushunchalar nomi: *antonim, semema, aksioma* kabi [Ufimseva, 1986]. Bu oʻrinda tilshunos keng maʼnoli soʻzlarni, ilmiy terminlarni abstrakt soʻzlar bilan qorishtirib yuborgan.

Tilshunoslikda abstrakt otlarni tasnif qilishning koʻplab tizimlari, qoliplari kuzatilib tahlil qilindi. Bu esa umumeʼtirof etilgan tipologiyaning yoʻqligidan dalolat beradi. Tilshunoslikda abstrakt nomlar tasniflanganda semantik, soʻz yasashga oid va koʻplik shaklini qabul qila olish yoki olmaslik, sanoq sistemasiga munosabati nuqtayi nazarlardan amalga oshirilgan. Tasniflarda bitta yoki ikkita omilga asoslanishlar kuzatildi.

Maʼlumki, til birliklari turli nuqtayi nazarlardan kategoriyalashtirilgan ekan, unda tasnif belgisi, tadqiqotning maqsadi va yoʻnalishi belgilovchi ahamiyatga ega boʻladi. [Mengliyev, 2002].

Biz quyida oʻzbek tili abstrakt otlarini semantik omil asosida tasniflashga harakat qildik. Bunda muayyan guruhlar semantik strukturasidagi arxisemalar asosida ajratildi. Oʻzbek tili abstrakt otlari anglatayotgan maʼnosiga koʻra quyidagi leksik-semantik guruhlariga tasniflanishi mumkin: “belgi”, “holat”, “harakat”, “munosabat”, “vaqt” maʼnoli, ijtimoiy va diniy tushunchalarni ifodalovchi abstrakt otlar.

**“Harakat” maʼnoli abstrakt otlar.** Mazkur guruhni harakat, jarayonlarni ifodalovchi abstrakt nomlar tashkil qiladi. Guruh elementlarining semantik strukturasida “harakat”, “jarayon” maʼno boʻlaklari mavjud boʻladi. Ushbu guruh boshqa leksik-semantik guruhlariga nisbatan kichikroq boʻlib, asosan, quyidagi abstrakt otlardan tarkib topgan: *kelishuv, izlanish, oʻzgarish (koʻchma maʼnoda)*. Koʻrinib turibdiki, “harakat” maʼnoli abstrakt nomlar son jihatdan kam: *kelishuv, izlanish, qoralov, oʻzgarish*.

*Izlanish* leksemasi “yangilik topish, yaratish harakatida boʻlish, shunday maqsadli harakat, faoliyat”ni bildiradi. Maʼlumki, abstrakt nomlarning lisoniy xususiyatlaridan biri pragmatik maʼnoga egaligidir. *Izlanish* leksemasining pragmatik maʼnosini quyidagi matnda yaqqol kuzatish mumkin:

*“Izlanish muntazam faoliyat demak, tun-u kun shuurli boʻlmoq, bir navi yugurik umrni uygʻoq oʻtkazmoq degani. Maʼnisiz onlarga mazmun baxsh etish istagi bilan bedor yashamoq degani. Qaerdadir oʻqigandim: Qalbing nimadandir bezovta boʻlib tunlari koʻzingdan uyquni olsa, issiq goʻsha va quchoqdan ham shirin, tilaklaringdan ham maftunkor, oʻylaringdan ham bepoyon bir narsani izlashga va yaratishga undasa, bilki, ruhing mangulikka munosib yashashga seni daʼvat etmoqda”* (I.Azimov)

Ushbu matndan *izlanish* leksemasining abstraksiya darajasi yuqoriligi ham

ma'lum bo'ladi. Mazkur so'zdagi voqelik tashuvchisidan – insondan mutloq ajratilib, alohida substansiya sifatida nomlanmoqda.

**Munosabat nomlari.** *Do'stlik, dushmanlik, nafrat, ishonch, hurmat, shafqatsizlik, tengsizlik* kabi so'zlar ushbu guruhni tashkil etadi. Mazkur so'zlar ifodalayotgan mohiyatlar ikki yoki undan ortiq insonlarning bir-biriga nisbatan bo'lgan his-tuyg'ularini ifodalaydi. Masalan, *do'stlik* munosabati ikki yoki undan ortiq obyektlarning o'zaro do'stona tuyg'ularini aks ettiradi. *Hurmat, muhabbat, sevgi* munosabatlari esa bir tomonlama bo'lishi ham mumkin.

Munosabat nomlari ko'pincha boshqa ma'nolar bilan qorishiq holda uchraydi. Muhabbat, sevgi, ishq so'zlari muayyan tuyg'uni nomlashi ma'lum. Bu tuyg'ular muayyan obyektga bo'lgan munosabatda yuzaga chiqadi. *Rahmdillik, xushmuomalalik, zolimlik, baxillik, bag'rikenglik, shafqatsizlik, mehribonlik* so'zlarida ham “munosabat” semasi mavjud bo'lib, insonning o'ziga xos ushbu xususiyatlari boshqa insonlarga bo'lgan munosabatida aks etadi.

Munosabatlarning doimiy, barqaror bo'lishi kishining sifatiga, xususiyatiga aylanishi mumkin. Masalan, kimgadir ayrim vaziyatlarda mehribonlik munosabatida bo'lish hammaga ham xosdir. Lekin kishidagi mehribonlik munosabatining barqarorlashuvi mazkur insonning “mehribonlik” sifatini shakllantiradi.

Etik tushunchalar hisoblangan *yaxshilik* va *yomonlik*, *ezgulik* va *yovuzlik*, aksiologik juftliklarida ham “munosabat” semasi potensial sema sifatida mavjud. *Yomondan yaxshilik kutma* matalida “munosabat” potensial semasi oydinlashgan. *Yomondan* so'zida “belgi”, *yaxshilik* so'zida “munosabat” ma'nosi ustunlik qiladi.

Munosabat bildiruvchi so'zlarning semantikasida mazkur munosabatni tashuvchi obyektlar haqida ma'lumot mavjud emas. Insonlararo bevosita kuzatishda berilmagan munosabatlarning mohiyatini faqat ongli ravishda bilish mumkin. Shuning uchun mazkur so'zlarning abstraksiya darajasi yuqoridir. Masalan, *ishonch* so'zi talaffuz qilinganda yoki eshitilganda uning bir yoki undan ortiq insonlarning munosabati ekanligi nazarda tutilmaydi. U go'yo alohida mohiyat sifatida idrok qilinadi.

O'zbek tili abstrakt so'zlari tarkibidan *madaniyat, mafkura, adolat, istiqloq, erkinlik, siyosat, ijtimoiy ong, milliy g'oya* kabi ijtimoiy-siyosiy tushuncha nomlari o'rin olganki, bu kabi tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning ekstralingvistik va lingvistik tadqiqi alohida o'rganilishi lozim. Diniy tushunchalarni ifodalovchi abstrakt nomlarga *iymon, halollik, savob, ajr, gunoh, e'tiqod, nafs* kabi so'zlar kiritiladi va bu so'zlarning aksariyati arab tilidan o'zlashgan so'zlardir. Diniy tushunchalarni nomlovchi abstrakt so'zlar xalqimizning bir necha asrlik diniy dunyoqarashini o'zida aks ettirib, xalqimizning mafkurasi va ma'naviy dunyosini belgilab beruvchi omillardan biridir.

Miqdoran katta guruhlarni tashkil etuvchi “belgi”, “holat” ma'noli abstrakt nomlar quyida alohida o'rganamiz.

### **Belgi bildiruvchi abstrakt nomlar**

“Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan bu

murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi” [Mahmudov, 2017]. Olamning turfa belgilarini sezgi a’zolari orqali bilish natijasida hosil bo’lgan sifatlar va aqliy zakovat orqali idrok qilish natijasida shakllangan belgilarni nomlovchi sifatlarni bir-biridan farqli ravishda o’rganish mumkin. Bu farqlilik konkret va abstrakt sifatlar oppozitsiyasini tashkil qiladi.

1. Belgi bildiruvchi so’zlarda ifodalanayotgan belgi tashqi sezgi a’zolarimiz orqali his qilinsa, bu kabi so’zlar konkret belgi bildiruvchi so’zlardir. Masalan, *ko’k, yumshoq, issiq, shirin, xushbo’y* leksemalari ifodalayotgan belgi sezgi a’zolarimizga ta’sir qila oladi va biz uni empirik bilish orqali seza olamiz. Demak, agar so’z muayyan ko’rish, eshitish, ta’m, hid, shaklini bilish mumkin bo’lgan belgini anglatasa, konkret sifat, faqat aql bilan mushohada qilinadigan belgini bildirsa, abstrakt sifat bo’ladi. Abstrakt sifatlar nomlayotgan belgi bevosita kuzatishda berilmagan, uni beshta sezgi a’zosi bilan his qilish mumkin emas. Ular anglatayotgan belgi miyaning murakkab operatsiyasi jarayonida shakllangan gnoseologik tushunchalarni aks ettiradi. Masalan, *ma’naviyatli, barkamol, kamtarin, serhimmat, noyob, antiqa, ijtimoiy, an’anaviy, tahliliy, obro’li* kabi. **Obro’li** – ko’rish mumkin emas, hidi yo’q, ta’mi yo’q, ovozi yo’q, ushlab bo’lmaydi. Uni faqat anglash kerak [Xakimova, 2019].

Abstrakt sifatlar guruhi tarkibida subyektiv baholash xarakteridagi nomlar ham mavjuddir. *Oppoq qor, dumaloq koptok* kabi kontekstlardagi konkret sifatlarda faqat predmetning o’ziga xos deskriptiv belgilari ifodalansa, *ajoyib qor, antiqa bola* bog’lanishlaridagi abstrakt sifatlar esa subyektiv bahoni aks ettiradi. Tilshunoslikda predmetning o’ziga xos belgilari deskriptiv, obyektiv belgilar; subyektiv munosabati orqali orttirilgan belgilar baholovchi yoki subyektiv belgilar deb yuritilishi ma’lum. Muayyan bir belgi faqat subyektiv yoki obyektiv komponentga ega bo’lishi yoki har ikkala komponent ham mavjud bo’lishi mumkin. *Oq, qizil, qora, uzunchoq, dumaloq* kabi konkret sifatlarda faqat obyektiv belgi, *ajoyib, antiqa* kabi abstrakt sifatlarda faqat subyektiv baho belgisi mavjud. “O’qimishli” so’zi esa “muayyan ilmiy muassasada ta’lim olganligi”ni ko’rsatuvchi obyektiv belgi va jamiyatda mazkur obyektiv belgiga nisbatan bo’lgan “ijobiy munosabat”, “hurmat” kabi subyektiv belgilardan iborat. Predmetning shakli va ta’mi eng obyektiv, ya’ni konkret, *ajoyib, antiqa, zo’r* kabilar eng abstrakt belgilardir. Konkret yoki abstrakt belgilarda obyektiv belgi bilan birga subyektiv munosabat komponentlari mavjud bo’lishi mumkin. “Iliq” konkret ma’noli so’zda predmetning obyektiv belgisi – ma’lum bir harorati ifodalansa-da, ushbu haroratning “kishiga xush yoqishi”, “me’yorning subyektiv mosligi” kabi subyektiv tomonlari ham mavjud. O.Bozorov “sodda”dan “merov”gacha bo’lgan darajali qatorda denotativ belgining darajalanishiga hamohang tarzda konnotativ ma’noning ham darajalanishini yoritib beradi [Bozorov, 1995].

O’zbek tilida abstrakt sifatlar ko’pchilikni tashkil etadi va ular turli ma’noviy guruhlariga bo’linadi. Abstrakt sifatlar guruhini qanday substansiyalarning belgisini nomlashga ko’ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- umumiy belgilarni nomlovchi abstrakt sifatlar;
- insonning sifatini nomlovchi abstrakt sifatlar;
- inson va hayvonlar uchun umumiy belgilar.

Umumiy belgilarga barcha narsalar uchun, jumladan, jonli va jonsiz, konkret va abstrakt mohiyatlar uchun birday qo‘llanishi mumkin bo‘lgan belgilarni kiritish mumkin. Masalan, *haqiqiy, asl, benuqson, serqirra, aniq, murakkab, oddiy, nuqsonsiz, yaroqli, kerakli, qaytarilmas, soxta* kabi abstrakt so‘zlar ushbu guruhni tashkil eta oladi. Zero, ular barcha substansiyalarning belgisini atab kela oladi. Masalan, *oddiy* so‘zini qog‘ozga ham, gulga ham, hayvonga ham, insonga ham, tushunchaga ham, fikrga ham qo‘llay olamiz.

*Nuqsonsiz* sifati jonli va jonsiz narsalar uchun birday qo‘llanishi mumkin: *nuqsonsiz surat* yoki *nuqsonsiz inson* kabi.

Insonning belgisini nomlovchi sifatlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ushbu guruhni:

- insonning mental xususiyatlarini ifodalovchi *bilimli, aqlli, nodon, esli, zakovatli, farosatli, ziyrak, dono, xushyor, loqayd, laqma, go‘l, befarosat, bilimdon, bilag‘on, ishbilarmon, mohir, ustakor, faol, qat‘iy, qobiliyatsiz, landovur* kabi;

- ruhiy holati bilan bog‘liq *asabiy, qo‘rqoq, shoshqaloq, mag‘rur, uyatchan, qahrli, serjahl, qayg‘uli, xursand, shod, g‘amgin, quvnoq, xushchaqchaq, irodali, ko‘ngilchan, oqko‘ngil* kabi;

- ma‘naviyati bilan bog‘liq sifatlarini ifodalovchi *yaxshi, yomon, ma‘naviyatli, ma‘naviyatsiz, iymonli, e‘tiqodli, tarbiyali, saxiy, johil, zolim, xasis, adolatli, mehribon, sodda, kamtar, sofdil, mag‘rur, kamsuqum, odmi, g‘ayir, ablah, xijolatparast, manman, xudbin, dimog‘dor, erkatoy, dangasa, badgumon, yolg‘onchi, rostgo‘y* kabi;

- estetik xususiyatlarini nomlovchi *latofatli, nazokatli, jozibador, nozik* (ko‘chma ma‘noda) kabi;

- jismoniy holati bilan bog‘liq *mard, jasur, dovyurak* kabi;

- munosabatlardagi o‘ziga xosliklarni ifodalovchi *ishonchli, tilyog‘lama, laganbardor, lo‘ttiboz, sotqin, xoin, vafodor, vafoli, xiyonatkor, sodiq, dilozor, hurmatli, qadrli, qadrdon, qattiqqo‘l, shafqatsiz* kabi sifatlar tashkil etadi. [Xakimova, 2021].

Abstrakt sifatlar guruhi elementlaridan ayrimlari insonning sifati bilan birga hayvonlarning belgisini ham nomlab kela oladi: *ayyor, aqlli, beozor, beg‘ubor, yuvosh, qo‘rqoq, qo‘rqmas, vafodor* kabi.

Demak, sifat so‘z turkumida konkret va abstrakt sifatlar ma‘naviy guruhlarini ajratish mumkin.

O‘zbek tili abstrakt otlari tarkibidan madaniyat, mafkura, adolat, istiqloq, erkinlik, siyosat, ijtimoiy ong, milliy g‘oya kabi ijtimoiy-siyosiy tushuncha nomlari, iymon, halollik, savob, ajr, gunoh, e‘tiqod, nafs diniy tushunchalarni nomlari, hamda miqdoran katta guruhlarni tashkil etuvchi “belgi”, “holat”, “vaqt” ma‘noli abstrakt nomlar guruhi mavjud.

### **Belgi ma‘noli abstrakt otlar**

Belgi ma'noli abstrakt otlar, asosan, ajratilgan, kuzatish mumkin bo'lgan sifatni, belgini, xususiyatni substansiya sifatida nomlaydi. Insonning sifatini nomlovchi so'zlarga *aqllilik, donolik, to'g'rilik, yolg'onchilik, dangasalik, ayyorlik, zukkolik, chaqqonlik, beg'uborlik, beozorlik* kabi so'zlar misol bo'la oladi. Narsa-predmetlarning umumiy belgisini bildiruvchi nomlarga esa *go'zallik, musaffolik, tiniqlik, aniqlik* kabi leksemalar misol bo'ladi.

Belgi ma'noli abstrakt otlar abstrakt belgini alohida mohiyat sifatida nomlaydi. Masalan, *dono* so'zi kimningdir aql-zakovatga egalik belgisini anglatadi. Matnda mazkur belgi uni tashuvchi obyektisiz mavjud bo'lmaydi: *Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart*. Mazkur matnda "dono" belgisining tashuvchisi farzandlarimizdir. "Dono" belgisi abstrakt otga aylanar ekan, u tashuvchisidan ayriladi. *Donolik* so'zida "aql-zakovatga egalik" ma'nosi mavjud bo'lgan holda *dono* sifatidagi "kimningdir" semasi mavjud emas: *donolik fazilat, nodonlik kulfat*. Lekin olamda tashuvchidan (insondan) ayri holda "donolik" degan mohiyat mavjud emas. U substansiya emas, atributdir. Shuning uchun *donolik* so'zi ot so'z turkumiga kirsada, unda "predmet" turkumlik semasi ham, arxisemasi ham mavjud bo'lmaydi. Aksincha, mazkur so'zlarnig semantik strukturasida "belgi" semasi arxisema darajasida bo'ladi. *Salimaning o'rinsiz donoligi ko'pchilikka yoqmasdi*. Ushbu gapda donolik Salimaning narsasi emas, belgisidir.

*Ezgulik* leksemasi nomlayotgan mohiyatni sezgi a'zolarimiz bilan seza olmaymiz, uni faqat aql bilan bilamiz va bizda u haqida tasavvur emas, tushuncha, bilim hosil bo'ladi. Shuning uchun ham bunday mohiyatlar gnoseologik xarakterdagi mohiyatlar deyiladi. Bu bilan ezgulik mavjud emas, u faqat ongimizning mahsuli demoqchi emasmiz. Jahon tilshunosligida abstrakt so'zlarga oid qilingan bir qator ilmiy ishlarda abstrakt nomlar ifodalayotgan mohiyatlar uchun "mif" termini qo'llanadi [Cherneyko, 1997]. Biz esa abstrakt so'zlar nomlayotgan mohiyatlar uchun "mif" atamasini qo'llashga umuman qarshimiz. To'g'ri, abstrakt nomlar atayotgan mohiyatlar obyektiv mavjud emas. Ularda obyektiv mavjudlikning shaklga egalik, sezgi a'zolarga ta'siri, vaqt-makon kontinuumiga egalik kabi shartlari yo'q. Mavjudlikning obyektiv (moddiy) turidan farqli nomoddiy mavjudlik ham mavjud. Nomoddiy, ideal, ruhiy, ma'naviy atamalar bilan nomlanadigan bu mavjudlik mifologik, ya'ni afsonaviy xarakterga ega emas [Kalinina, 1999].

Belgi bildiruvchi abstrakt otlar guruhini tashkil etuvchi deyarli barcha leksemalar insonning sifatini nomlaydi: *beg'uborlik, botirlik, vafosizlik, vijdonsizlik, donolik, ziyraklik, mag'rurlik, to'g'rilik, uyatchanlik, faollik* kabi.

Insonga xos belgini abstrakt mohiyat sifatida nomlovchi leksik-semantik guruhni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Insonning xarakterini ifodalovchi so'zlar.
2. Insonning qobiliyatini ifodalovchi so'zlar.
3. Etik tushunchalarni ifodalovchi so'zlar.
4. Estetik tushunchalarni ifodalovchi so'zlar.

**Insonning xarakterini nomlovchi** belginomlariga *qiziquvchanlik, qo'rqmaslik, botirlik, jasurlik, qat'iylik, keskinlik, landovurlik, ko'ngilchanlik, oqko'ngillik,*

*soddalik, kamtarlik, sofdillik, quvnoqlik, mag'rurlik, fahmsizlik, kamsuqumlik, odmilik, ablahlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, xijolatparastlik, manmanlik, xudbinlik, dimog'dorlik, erkatoylik, dangasalik, mehribonlik, badgumonlik, rahmdillik, berahmlik, qo'rqoqlik, qattiqqo'llik, shafqatsizlik, yolg'onchilik, rostgo'ylik, vafosizlik, jiddiylik, befarqlik, bilimsizlik, xushomadgo'ylik, tilyog'lamalik* kabi leksemalar misol bo'ladi.

**Insonning qobiliyatiga oid belgilarni nomlovchi** leksemalarga *bilimdonlik, bilag'onlik, ishbilarmonlik, mohirlik, ustakorlik, ziyraklik, faollik, chidamlilik, serqirralik* kabi leksemalar misol bo'ladi. Mazkur guruhdagi leksemalar insonning biror bir faoliyatga moyilligini bildiradi. Masalan, *ziyraklik* leksemasi o'ta sezgirlik qobiliyatini nomlaydi. Biz ushbu guruhga bilim bilan bog'liq *bilimdonlik, bilag'onlik* leksemalarini kiritdik. Har bir bilimli insonning qobiliyatiga nisbatan *bilimdonlik*, o'qigan insonga nisbatan *ziyolilik* leksemalarini qo'llash mumkin. Bizningcha, puxta, mukammal bilimga egalik: *bilimdonlik*, juda ko'p bilimga egalik: *bilag'onlik* hamma insonlarda ham uchramaydigan qobiliyatdir.

Insonga xos sifatlar tarkibida **etik tushunchalarni nomlovchi** so'zlar alohida guruhni hosil qiladi va ushbu guruh elementlari insonning axloqiy belgilarini nomlaydi: *yaxshilik, yomonlik, ezgulik, yovuzlik, johillik, komillik, barkamollik, odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, ma'naviyatsizlik, xushmuomalalik, madaniyatsizlik, axloqsizlik, odobsizlik, qo'pollik, aybsizlik, gunohsizlik, dushmanlik, zolimlik, qabihlik, iymonsizlik*. Mazkur guruh elementlarining aksariyati aksiologik juftliklar hosil qiladi: *yaxshilik* va *yomonlik*, *ezgulik* va *yovuzlik*, *johillik* va *komillik*, *adolatsizlik* va *odillik*, *egrilik* va *to'g'rilik* kabi.

Mazkur guruh elementlarining abstraksiya darajalari juda yuqori. Chunki ular nomlayotgan belgi tashuvchisidan to'la ajralgan bo'lib, moddiylik bilan aloqasi mavjud emas. Masalan, *komillik* leksemasida "komil" belgisi substansiya sifatida nomlanar ekan, uning tashuvchisi bilan, moddiylik bilan bog'liqlik kuzatilmaydi. *Komillik* leksemasining semantik mundarijasida ham belgining obykti xaqida ma'lumot mavjud emas.

Insonga xos sifatlar guruhi tarkibida **estetik tabiatli** belgilar ham mavjud bo'lib, ushbu guruhni quyidagi leksemalar tashkil qiladi: *go'zallik, latofat, nazokat, nafislik, noziklik(ko'chma ma'noda), joziba, jozibadorlik*. Mazkur guruh elementlarining abstraksiya darajasi etik tushunchalarni nomlovchi so'zlarga nisbatan pastroqdir. Chunki, estetik tushunchalar aqliy bilish mahsuli bo'lishi bilan birga ularning ko'rish orqali idrok qilinadigan belgilari mavjud. *Men darvoza tarafladim. Darvoza odob bilan tik-tik etdi. Darvoza nazokat bilan tik-tik etdi*,

"Kim bo'lsa-da, o'zimizdan bo'lmadi, — deya o'yladim. — O'zimizdan bo'lsa, taraq-turuq uradi" (Tog'ay Murod). Ushbu matnda *nazokat* eshitish orqali anglanmoqda. Nazokatning o'zi bevosita kuzatishda berilmagan murakkab mohiyat bo'lib, uning belgilarini esa hissiy sezish orqali bevosita kuzatish mumkin. Yuqoridagi matnda eshitish orqali anglangan bo'lsa, *qizaloq nazokat bilan o'ynardi* kabi bog'lanishlarda esa ko'rish orqali bilinmoqda.

"Go'zallik" so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi:

“**GO‘ZALLIK 1** Chiroy, husn. *U [Gulnor] bukun shod, bahor uning... go‘zalligiga go‘zallik qo‘shgan.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 fls. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq tuyg‘ulari uyg‘otuvchi xususiyatlarini ifodalovchi estetik tushuncha” [O‘TIL, 2005, 1-jild].

Demak, *go‘zallik* birinchi ma‘nosi bilan *chiroy* va *husn* so‘zlari bilan sinonim bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosida kishilarda estetik zavq uyg‘otuvchi xususiyatlarni nomlar ekan. Kishilarda estetik zavq turlicha hosil bo‘lishi nuqtayi nazaridan *go‘zallik* ham turli jinsli bo‘ladi. Masalan, qip-qizil lolalar, tiniq suvlar, oppoq qorlar, yashil maysalar kabi konkret narsalar insonlarda estetik zavq uyg‘otadi. Bu kabi *go‘zallik*larni ko‘rish mumkin bo‘ladi:

*Borliq olam ko‘zimga ming-ming*

*Go‘zallikka to‘lib ko‘rindi.*

*Gullar menga oshiq bulbulning*

*She‘r daftari bo‘lib ko‘rindi... (E.Vohidov)*

Lekin abstrakt mohiyatlar ham estetik zavq hosil qilishi mumkin. Masalan, qalb *go‘zalligi*, ma‘naviy *go‘zallik* shular jumlasidandir. Asosiysi, *go‘zallik* insondan ayri holda alohida mohiyat sifatida til egalari ongida mavjudki, bu holat uni abstrakt so‘z ekanligini isbotlaydi. Masalan, quyidagi she‘riy parchada *go‘zallik* kimningdir yoki nimaningdir kuzatishda berilgan chiroyi emas, umuman, abstrakt substansiya sifatida reallashmoqda:

*Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada,*

*Bu nihol nomini Yaxshilik ata.*

*Niholing yoniga bir gul ekib qo‘y,*

*U gulning ismini Go‘zallik deb qo‘y (E.Vohidov. Bir nihol).*

Estetik tushunchalarni ifodalovchi *chiroy*, *husn* kabi so‘zlarni esa abstrakt so‘zlar qatoriga qo‘sha olmaymiz. Chunki ular aniq obyektiv voqelikni aks ettiradi.

Demak, estetik tushunchalarni nomlovchi so‘zlarning barchasi ham abstrakt so‘z bo‘la olmaydi. Abstrakt so‘z qatoriga kira oladigan estetik tushunchalarni nomlovchi so‘zlarning abstraksiya darajalari pastdir.

Belgi ma‘noli abstrakt otlar guruhi elementlaridan ayrimlari insonning sifatleri bilan birga hayvonlarning belgisini ham nomlab kela oladi: *ayyorlik*, *aqllilik*, *beozorlik*, *beg‘uborlik*, *yuvoshlik*, *qo‘rqoqlik*, *qo‘rqmaslik*, *vafodorlik* kabi.

Belgi otlari guruhi tarkibida yana jonli va jonsiz predmetlarning belgisini nomlovchi *haqiqiylik*, *asllik*, *benuqsonlik*, *serqirralik*, *aniqlik*, *murakkablik*, *oddiylik*, *nuqsonsizlik*, *yaroqlilik*, *keraklilik*, *qaytarilmaslik*, *soxtalik* kabi umumiy belgi otlari ham alohida bir guruhni tashkil qiladi. Umumiy belgi bildiruvchi otlar jonli va jonsiz tabiat elementlari uchun birday qo‘llanishi mumkin: *suratning nuqsonsizligi* yoki *insonning nuqsonsizligi*, *loyihaning oddiyligi* yoki *qizning oddiyligi* kabi.

Insonning sifatini nomlovchi abstrakt so‘zlarda belgi sof yoki qorishliq xolatda ifodalanishi mumkin. Belgini sof holatda ifodalovchi abstrakt nomlarga *donolik*, *zukkolik*, *kaltabinlik*, *kamtarlik*, *kamtarinlik*, *rostgo‘ylik* kabi so‘zlar misol bo‘la oladi.

Insonga xos belgi va holat oppozitsiyasining neytrallashuvini *qiziquvchanlik*, *faollik*, *aybsizlik* leksemalari anglatayotgan ma'nolarda ko'rish mumkin. Mazkur leksemalar ham insonning belgisini, ham shu belgi asosida mavjud holatni nomlaydi. Masalan, *qiziquvchanlik* leksemasi kishining sifatini nomlashi bilan birga, shu sifati asosida hosil bo'lgan holatni ham nomlaydi. *Muslimaning qiziquvchanligi hammaga yoqardi* kabi bog'lanishlarda xarakter, ya'ni belgi birlamchi pozitsiyada bo'lsa, *Muslima yana ortiqcha qiziquvchanlik qildi* gapida esa holat belgilovchi mavqeda bo'ladi.

Biz abstrakt nomlarni onomasiologik-semasiologik nuqtayi nazardan tasnif qilganimizda belgi bildiruvchi nomlar kabi munosabat bildiruvchi nomlarni ham alohida ajratganmiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, predmetning boshqa obyektlar ta'siridagi "faqat o'zida" mavjud xususiyatlari bilan uning boshqa obyektlar bilan shartlangan "o'zidan tashqaridagi" belgilarining semantik xususiyatlari, abstraksiya darajalari farqlanishi tabiiy. Ushbu farqliklar "belgi" (bu o'rinda "belgi" atamasi tor, xususiyl ma'noda qo'llanmoqda) va "munosabat" tushunchalarini oppozitsiyalash imkonini beradi. Lekin bir qator abstrakt nomlar mavjudki, ularning semantikasida belgi va munosabat oppozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Insonga xos belgi va munosabat oppozitsiyasining neytrallashuvini ro'yxushlik, shafqatsizlik, vafosizlik, qattiqqo'llik, mehribonlik, xushomadgo'lik, tilyog'lamalilik, lo'ttibozlik leksemalari anglatayotgan ma'nolarda ko'rish mumkin. Ushbu nomlarni belgi bildiruvchi leksik-semantik guruh tarkibida berishimizga paradigmatic holatida ular anglatayotgan munosabat insonga xos xarakter, xususiyat bilan belgilanayotgani sabab bo'ldi [Hakimova, 2019]. Lekin sintagmatik reallashuvda vaziyatdan kelib chiqib, belgi yoki munosabat semalarining yuqori mavqe egallashini kuzatish mumkin. Masalan, *Kesakpolvonning shafqatsizligi ko'pchilikka ma'lum edi* kabi bog'lanishlarda belgi, *Asadbek shafqatsizlik qildi* kabi bog'lanishlarda esa munosabat semalari oydinlashmoqda.

Abstrakt nomlar o'rtasida nafaqat ikki a'zoli, balki uch a'zoli belgi+holat+munosabat oppozitiv munosabatlarning neytrallashuvi kuzatiladi. Masalan, *vafosizlik* leksemasi "vafosiz" belgisini, vafo qilmaslik holatini, muyayan bir obyektga nisbatan va'dani bajarmaslik munosabatini bildiradi. *Azizning vafosizligi hammaga ma'lum edi* gapida "belgi", *Aziz Karimaga vafosizlik qildi* gapida "munosabat", *Azizning vafosizligini kechirib bo'lmaydi* gapida esa "holat" semasi reallashgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek tilida belgi ma'noli so'zlar abstrakt otlar ichida eng katta guruhni tashkil etadi. Mazkur guruh elementlarining aksariyati *-lik* affiksi orqali yasalsa-da, ushbu affiks orqali yasalgan barcha so'zlar abstrakt so'z bo'la olmaydi. Faqat gnoseologik tabiatli belgilarni substansiya sifatida atovchi so'zlarnigina belgi ma'noli abstrakt so'zlar deyish mumkin va ular belgi yoki predmetni ifodalovchi so'zlardan farqli o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlarga ega.

**"Holat" ma'noli abstrakt nomlar.** O'zbek tilida abstrakt otlarning ma'lum qismini *xursandchilik*, *g'amginlik*, *noxushlik*, *aqlsizlik*, *baxt*, *sog'inch*, *xavotir* kabi

holat nomlari tashkil etadi.

Har qanday holatni nomlovchi soʻzlar, aslida, ajratilganlik xarakteriga ega. Zero, holat maʼlum bir obyekt yoki ishtirokchisiz mavjud boʻlmaydi. Masalan, vaznsizlik holati shu holatning makoni, vaqti va unga tushgan obyekt bilan shartlangandir. Lekin *vaznsizlik* soʻzida bu kabi belgilar mavjud emas. U ushbu belgilaridan ajratilgan.

Obyektidan yoki ishtirokchilaridan ajratilgan har qanday holat nomlarida maʼlum darajada abstraksiya mavjud boʻlishiga qaramay, ularni abstrakt nomlar deb belgilay olmaymiz. Masalan, “uyqusizlik” holati bevosita kuzatishda berilgan boʻlib, ushbu holatning obrazi til egalari ongida mavjud boʻladi. Shuning uchun ham *uyqusizlik* leksemasining maʼnosi barcha til egalari tomonidan bir xil tushuniladi va qoʻllaniladi. Bu esa konkret nomlar variantlarining boʻlmasligini yoki kam miqdorda boʻlishini belgilaydi. Abstrakt nomlarda esa oʻzgacha holat kuzatiladi. Mazkur soʻzlar nomlayotgan holat bevosita kuzatishda berilmaganligi sababli ushbu holatning inson ongida yagona obrazi shakllanmaydi. Abstrakt nomlar atayotgan holatlarni aqliy bilish orqali idrok qilar ekanmiz, insonlarning aqliy salohiyati va uni belgilovchi omillarning turlichaligi maʼlum bir holatni bir-biridan farqli mushohada qilinishiga sabab boʻladi. Masalan, *baxt* leksemasining variant aspekti invariant jihatidan keng. Yaʼni *baxt* soʻzining invarianti “kishining hayotdan toʻla qoniqish holati” boʻlsa, insonlarning hayotdan toʻla qoniqayotganlarini bilish darajalari turli ekanligi hisobiga variantlari ham koʻp: “baxt – sogʻlik”, “baxt – mavjudlik”, “baxt – sevgi”, “baxt – xotirjamlik”, “baxt – oila”, “baxt – bu xursandchilik” kabi.

Demak, oʻzbek tilida bevosita kuzatishda berilmagan, faqat aqliy bilish orqali idrok qilinadigan holat nomlarini abstrakt holat nomlari deb belgilash mumkin. [Xakimova, 2025]. Tahlillar jarayonida mazkur guruh elementlarining bir jinsli emasligini kuzatdik. Holat maʼnoli abstrakt nomlar holatning turli xil koʻrinishlarini nomlar ekan, ularni kichik guruhlarda oʻrganishni lozim deb topdik. Ushbu guruhdagi tashkil etuvchilarni umumiy va xususiy holatni nomlashiga koʻra ikkiga ajratish mumkin:

- 1) umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar;
- 2) xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar.

Umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar kimdir yoki nimadir ishtirok etgan vaziyatni, umumiy holatni sof tarzda, bevosita nomlaydi. Ushbu guruhni quyidagi soʻzlar tashkil qiladi: *ozodlik* – hech qanday majburiyat bilan bogʻlanmaganlik holati, *mustaqillik* – qaram boʻlmagan holat, *tinchlik* – bezovta qilmaydigan, osoyishta holat, *notinchlik* – osoyishta boʻlmagan holat, *xotirjamlik* – biror kimsa yoki narsa halaqit qilmaydigan tinch holat, *hamjihatlik* – birlikda boʻlish holati, *yolgʻizlik* – oʻzi bilan oʻzi boʻlishlik holati...

Ushbu guruhni tashkil qilgan soʻzlarning deyarli barchasi yasama boʻlib, ular, asosan, sifatdan yasalganligi, baʼzilarining yasalishi murakkab strukturaga egaligi koʻrinib turibdi. Maqsadimiz abstrakt nomlarning formal tomonlarini emas, balki semantik xususiyatlarini tadqiq etish boʻlganligi sababli mazkur jihatlarga toʻxtalmadik.

Umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar abstraksiya darajasi yuqori bo'lgan nomlarga kiradi. Zero, ular nomlayotgan holatni obrazli tasavvur qilib bo'lmaydi, aksincha, tushuniladi. Hamda mazkur so'zlar ifodalayotgan holatlarning lokallashuvi kuzatilmaydi. Masalan, *ozodlik* leksemasining muayyan bir obrazda tasavvur qilib bo'lmaydi, va ushbu so'z lokallikka xos kategoriyalarni qabul qila olmaydi. *Tinchlikning joylashuvi*, *tinchlikning yonida*, *tinchlikning orqasida*, *tinchlikning balandligi* kabi jumlar mantiqsizlikdir. Shu o'rinda yana ta'kidlash kerakki, abstrakt leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishayotgan lokal xarakterdagi leksemalar ham abstrakt mohiyat kasb etadi. Ushbu fikr umumiy holatni nomlovchi abstrakt so'zlarga ham taalluqlidir. Masalan, *Mening hayotimda mustaqillikning o'рни beqiyosdir* gapida *o'rin* leksemasi "ahamiyat" ma'nosida, *bu tinchlikning orqasida kimlar turganini hammamiz yaxshi bilamiz* gapida esa *orqa* leksemasi "sababchi" ma'nosida qo'llanmoqda.

Umumiy holatni nomlovchi abstrakt nomlar ko'plik shaklini qabul qila olmaydi va sanoq sistemasiga befarqdir. *Sokinliklar* yoki *ikkita tinchlik* deyish til qoidalariga ziddir.

Xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar ma'lum bir jonli obyektning jismoniy, aqliy yoki ruhiy jihatdan bo'lgan ko'rinishi, holatini bildiradi. Xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- a) ruhiy holatni nomlovchi abstrakt nomlar;
- b) aqliy holatni nomlovchi abstrakt nomlar;
- c) jismoniy holatni nomlovchi abstrakt nomlar.

1. Ruhiy holat nomlari. Insonning ruhiy holatini nomlovchi abstrakt nomlarga hissiyotlar, his-tuyg'ular, kayfiyatni nomlovchi so'zlar misol bo'la oladi. Bu guruhga *armon*, *aqlsizlik*, *afsus*, *baxtiyorlik*, *baxt*, *baxtsizlik*, *vahima*, *iztirob*, *irodasizlik*, *kulfat*, *nadomat*, *nafrat*, *omad*, *sarosima*, *sarosimalik*, *sevgi*, *muhabbat*, *sevinch*, *sog'inch*, *tasalli*, *taskin*, *tashvish*, *tushkunlik*, *umid*, *umidsizlik*, *xavotir*, *xastadillik*, *xafalik*, *xursandchilik*, *shodlik*, *shubha*, *qayg'u*, *quvonch*, *quturish*, *g'azab*, *g'am*, *hayrat*, *hayronlik*, *hayajon* kabi nomlar misol bo'la oladi.

Yuqorida berilgan ruhiy holat nomlarining abstraksiya darajasi juda yuqori bo'lib, ular obyektidan ajratilgan, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, aql orqali bilish mumkin bo'lgan nomoddiy mohiyatlarni, holatlarni nomlaydi.

Ruhiy holat nominatsiyasini tahlil qilar ekanmiz, unda insonlarning emotsiyalarini va his-tuyg'ularni nomlovchi leksemalarni farqladik. Zero, psixologiya fanida ham emotsiya va his-tuyg'ular bir-biriga yaqin boshqa-boshqa hodisalar sifatida talqin qilinadi.

Shaxsning atrofdagi va o'zida kechayotgan voqealarga bo'lgan baholovchi munosabati emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Emotsiyalar muayyan voqea-hodisa, sharoitlarga insonning qisqa muddatli reaksiyasidir. Ularga *xursandchilik*, *g'azab*, *qo'rquv*, *hayrat*, *hayronlik*, *hayajon* kabi so'zlarni kiritish mumkin. His-tuyg'ular esa emotsiyalarga nisbatan barqaror, uzoq muddatli bo'lib, ularga *sevgi*, *muhabbat*, *baxt*, *sog'inch* kabi so'zlar misol bo'la oladi.

Demak, insonning ruhiy holatini nomlovchi abstrakt nomlar guruhini emotsiya,

his-tuyg‘u nomlari tashkil etadi.

Emotsiya nomlarida insonning muayyan vaziyat talab qilgan turg‘un bo‘lmagan beqaror ruhiy holati va ularda vaziyatga bo‘lgan baholash munosabati aks etadi. “Vahima” muayyan bir vaziyatning ta’sirida hosil bo‘lgan juda kuchli qo‘rqish holati va u shu vaziyatdan tashqarida o‘zgarishi yoki mavjud bo‘lmasligi mumkin. Aniqrog‘i, itdan vahimaga tushish holati yoki hissi faqat it bilan bog‘liq vaziyatlardagina voqe bo‘ladi. “Vahima” leksemasida vaziyatga bo‘lgan salbiy munosabat ham mavjud bo‘ladi. Sevgi tuyg‘usi esa “vahima”ga nisbatan barqaror bo‘lib, u vaziyat bilan emas, obyekt bilan shartlangan bo‘ladi. Bu his shu obyekt mavjud bo‘lmagan vaziyatda ham insonni tark etmasligi mumkin.

Ayrim so‘zlar emotsiyalarni nomlashi bilan birga, mazkur ruhiy holatdagi muayyan hisni ham nomlab keladi. Masalan, surunkali jahl emotsiyasini boshidan kechirgan odamda jahldorlik hissi barqarorlashib qolishi mumkin.

Ruhiy holat nomlari o‘zbek tilida miqdoran katta leksik guruhni tashkil etadi. Ushbu guruh tashkil etuvchilarining abstraksiya darajalari aqliy holat nomlariga nisbatan pastroqdir. Zero, aksariyat ruhiy holat nomlari atayotgan mohiyatlarning belgilarini kuzatish mumkin. Masalan, “qahr” so‘zi atayotgan emotsiyaning belgilari kishining yuzidagi mimikalarida, xatti-harakatlarida, ovozinin ohangi va kuchida o‘z ifodasini topadi. Quyidagi matnda “qahr” inson yuz tuzilishidagi belgilar orqali ma’lum bo‘lmoqda: *Boburning yuzi qahr u g‘azabdan bir oqarib, bir qizarib ketayotgan bo‘lsa ham so‘zlari ravon edi. Samarqandda Boburni tildan qoldirgan kasallik — g‘oyat kuchli bir ruhiy larzaning oqibati edi. Endi undan ham kuchliroq ruhiy larza Boburning tilida qolgan duduqlikni birdan yo‘q qilib yubordi. Dushmanlariga qarshi cheksiz bir nafrat va g‘azab unga kuch-quvvat bermogda edi* (P.Qodirov).

Keyigi matnga e’tibor qaratar ekanmiz, unda *qahr* so‘zi nomlayotgan emotsional holatda ko‘proq ovozning o‘zagarishi kuzatiladi va ovozidagi o‘zgarish tufayli biz insonni qahrlanganligini anglaymiz: *Qorong‘ilikni titratib chiqqan Asadbekning qahrli ovozi oraga tushgan bir damlik sukutni buzdi.*

— *Mening qullarim ajib-bijib yotibdi. Sendan durustroq qul ham chiqmaydi. Sen... ashulangni bilsang bas. Boshqa ishlarga tumshug‘ingni suqma. Elchin Asadbekning sensirashiga o‘tganidan bildiki, u g‘azab otiga mindi* (T.Malik).

“Qahr”ning kuzatishda berilgan belgilariga yana mazkur holatdagi kishining noodatiy xatti-harakatlarini misol qilish mumkin: *Qahr bilan, nafrat bilan so‘ridan tappa tashladim. Begasam choponlik bilan bo‘zbolalarni oracha qilayin, dedim. Olomonni quloqlarim bilan yorib, o‘rtaga kirib bordim. Bir bo‘zbolani bilagidan qo‘shqo‘llab ushladim. Ketiga sermab yubordim. Bir bo‘zbolani sochlaridan g‘ijimlab ushladim. Sochlaridan chetga tortdim* (T.Murod).

Mazkur guruh elementlarining barchasi ruhiy holatni ifodalashi bilan birga ayrimlarida (qo‘rquv, g‘azab) ruhiy holat sof tarzda nomlansa, ayrim nomlarda (sevgi, nafrat) holat va munosabat oppozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Ruhiy holatni sof tarzda ifodalovchi nomlarga quyidagi leksemalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin: *hayrat* – kuchli darajadagi hayronlik holati, *hayronlik* – mohiyat-sababiga

tushunmay ajablanish holati, *hayajon* – ichki to‘lqinlanish holati, *g‘am* – ruhiy azob holati. *Sevgi, hurmat, ishonch, sodiqlik, xiyonat* kabi nomlarda esa ruhiy holat va munosabat oppozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Ya‘ni bu nomlar ruhiy holat bilan birga muayyan bir obyektga yo‘naltirilgan munosabatni ham nomlaydi.

Insonning ruhiy holatini nomlovchi guruh elementlarining bir jinsli emasligi ularni yanada kichik guruhlariga tasniflash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, ushbu guruhdagi leksik birliklarni ikki guruhga ajratdik:

1) ruhiy holatni sof tarzda nomlovchi so‘zlar;

2) ruhiy holatni munosabat bilan qorishtirib nomlovchi so‘zlar.

Ruhiy holatni sof tarzda nomlovchi so‘zlarga *hayronlik, hayrat, g‘azab, jahl, vahima, qo‘rquv, dahshat, qutirish, qahr, hayajon, ajablanish, taajjub, notinchlik, xursandchilik, g‘am, iztirob, tashvish, sog‘inch, xafalik, umid, umidsizlik, baxt, baxtsizlik, kulfat, xavotir, aqlsizlik, tushkunlik, nadomat, afsus, sarosima, sarosimalik* kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bularning barchasi “ruhiy holat” arxisemasi bilan birlashadi. Ushbu guruh birliklari orasida *g‘azab, jahl, vahima, qo‘rquv, dahshat, quturish, qahr, hayajon* kabi leksemalar insonlar bilan birga ayrim hayvonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi.

Odamning hissiyotlari yoki his-tuyg‘ulari bilan hayvonlarning his-tuyg‘ulari bir xil so‘zlar bilan ifoda qilinsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, *jahl, qo‘rquv, qiziquvchanlik* so‘zlari insonlarga ham, hayvonlarga ham birdek qo‘llanishi mumkin. Lekin ularning semantik mundarijasi bir-biridan farq qiladi. Insonning his-tuyg‘ulari o‘ta murakkabdir. Kishilarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy tafakkuri zahirida sof insoniy his-tuyg‘ular shakllanadi va inson bu tuyg‘ularini boshqarib, jilovlab turadi. Hayvonlardagi his-tuyg‘ular esa ong orqali boshqarilmaydi.

**2. Aqliy holat nomlari.** Mazkur guruhni *fikr, g‘oya, aql, ong, qiziqish, bilim, ilm, mushohada, diqqat, e‘tibor, tafakkur, mulohaza* kabi so‘zlar tashkil etadi. Ularning abstraksiya darajasi ruhiy holat nomlariga nisbatan yuqoridir. Aqliy tushuncha va holat nomlari faqat nazariy bilish jarayonlari bilan bog‘liq voqeliklarni ataydi. Mazkur so‘zlar insonning holatini nomlab kelsa-da, ularning semantikasida muayyan bir obyektning holati ekanligi unutilgan va mazkur holat mustaqil substansiyaga aylana olgan. Masalan, “tafakkur” so‘zining ma‘nosi O‘TILda shunday keltiriladi: “obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in‘ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash” [O‘TIL, 2008, 4-jild]. Demak, tafakkur insonning fikrlash qobiliyati bo‘lib, bu mental holat yoki qobiliyat insondan ayri holda mavjud emas. Lekin “tafakkur” so‘zida inson atributi ekanligi unutilib, u o‘ziga xos belgilardan iborat substansiya darajasiga yetgan. *Tafakkur* so‘zining yuqori abstraksiyaga ega ekanligi uning tashuvchisidan mutloq ajratilishi bilan o‘lchanadi.

Jahon tilshunosligida konkret va abstrakt otlarni ko‘plik kategoriyasini qabul qilish yoki qila olmaslik nuqtayi nazaridan ajratilish an‘anasi mavjud. O‘zbek tilidagi

ayrim aqliy holat nomlarining –lar ko‘plik qo‘shimchasini qabul qila olishi ularning abstraksiya darajasining pasayishiga olib kelmaydi. *Fikrlar, g‘oyalar, o‘ylar, orzular, bilimlar, qiziqishlar* kabi so‘zlarning abstraksiya darajasi –lar qo‘shimchasini qabul qila olmaydigan *iroda, diqqat, e’tibor, tafakkur* so‘zlarining abstraksiya darajasidan kam emas.

*Ong* so‘zi “kishining fikrlash qobiliyati”, “odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati”, “voqelikning kishi miyasidagi aksi” kabi ma’nolarni anglatadi. [O‘TIL, 2007, 3-jild]. *Aql* esa “inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati” [O‘TIL, 2005, 1-jild]. Demak, *ong* so‘zi voqelikning miyamizdagi aksini va unga bizning munosabatimizni bildirsa, *aql* so‘zi mazkur jarayonni boshqarib turuvchi faoliyatdir. *Aql* so‘zi polisemantik so‘z bo‘lib, uning “fahm, idrok”, “mulohaza, maslahat tarzidagi fikr” kabi ma’nolari bor. *Aql bo‘lmoq, aql kerak yoki aql kerak emas kabi bog‘lanishlarda esa “aql” leksemasining izohli lug‘atda qayd etilmagan “maslahatchi” ma’nosi reallashadi. Bu ma’no “maslahat tarzidagi fikr” ma’nosidan metonimiya asosida o‘zib chiqqan: maslahat – maslahatchi.*

*Aql* so‘zining yuqori abstraksiyaga ega ekanligi uning o‘z tashuvchisidan (insondan) ajratilganlik darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu so‘z semantikasi go‘yoki alohida “aql” substansiyasi mavjuddek taassurot uyg‘otadi. Zero, obyektiv olamda aql insondan ayri holda mavjud emasligi ma’lum. Quyidagi matnda aqlning, nafaqat aqlning, fikrat va muhabbatning ham alohida mohiyat sifatida talqin qilinishi fikrimizning dalilidir:

*Yurak kulbasida yashar muhabbat,*

*Boshni makon etmish aql va fikrat.*

*Baland qasrlardan aql izla-yu*

*Va lekin muhabbat izlama faqat* (Erkin Vohidov).

“Aql” qadriyati “aql bovar qilmaslik”, “aqlga sig‘maslik” kabi o‘xshatishlarda ham aks etadi. Ko‘plab maqollarda o‘zbek xalqining aql bilan bog‘liq qarashlari aks etadi: *ayolning husni pardozda emas, aqlida; aybini yashirmoq nodonlar ishi; amalga qarama, aqlga qara; aql aynimas, oltin chirimas; aql aqldan quvvat olar; aql bilan odob egizak; aql bozorda sotilmas; aql bo‘yda emas, o‘yda.*

Demak, aqliy holat nomlari insonning aqliy faoliyati bilan bog‘liq holatlarni nomlaydi. Mazkur guruhga oid so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’noli bo‘lib, ma’no taraqqiyoti odatda abstrakt ma’nolarni ifodalashga qaratilgan. Aqliy holat nomlari guruhidagi so‘zlarning ko‘pchiligi xalqimizning qadriyatiga aylangan bo‘lib, mifologiyalashgan til birliklari, frazeologik birliklar, o‘xshatishlar, tilning paremiologik fondi tarkibidan mustahkam o‘rin olgan.[Xakimova, 2019].

Demak, o‘zbek tilida holat nomlari bir jinsli bo‘lmay, ular nafaqat turli holatlarni nomlashi bilan, balki abstraksiya darajalarining har xilligi bilan ham farqlanadi.

## XULOSA

O‘zbek tili leksik sathda abstrakt mohiyatlarni substansiya sifatida nomlovchi *aql, idrok, g‘urur, qo‘rqoqlik, berahmlik* kabi abstrakt otlar, *farosatli, sodda, dono* kabi abstrakt sifatlar va *eslamoq, fikrlamoq, anglamoq* kabi abstrakt fe’llar farqlanadi.

Sezgi a'zolari orqali bilish natijasida hosil bo'lgan sifatlar va aqliy bilish natijasida shakllangan belgilarni nomlovchi sifatlar bir-biridan farq qiladi. Bu farqlilik konkret va abstrakt sifatlar oppozitsiyasigacha yetib boradi.

Belgi bildiruvchi so'zlarda ifodalanayotgan belgi sezgi a'zolarimiz orqali his qilinsa, bunday sifatlar konkret sifatlardir. Abstrakt sifatlar esa bevosita kuzatishda berilmagan, gnoseologik belgilarni aks ettiradi. Abstrakt sifatlar nimalarning qanday belgisini nomlashiga ko'ra turli ma'noviy guruhlar hosil qiladi. Abstrakt otlar obyektidan ajratilgan belgini alohida substansiya sifatida nomlaydi. Ular atayotgan mohiyatlar bevosita kuzatishda berilmagan, aqliy bilish orqali anglanadigan gnoseologik, nomoddiy, shaklga, makonga va chegaraga ega bo'lmagan mohiyatlardir. Abstrakt otlarda "predmet" arxisemasi mavjud bo'lmagani holda, "harakat", "munosabat", "belgi", "holat", "vaqt" kabi semalar mavjud bo'ladi.

Tilshunoslikda abstrakt otlarni tasnif qilishning ko'plab tizimlari, qoliplari kuzatilib tahlil qilindi. Bu esa umume'tirof etilgan tipologiyaaning yo'qligidan dalolat beradi. Tilshunoslikda abstrakt nomlar tasniflaganda semantik, so'z yasashiga oid va ko'plik shaklini qabul qila olish yoki olmaslik, sanoq sistemasiga munosabati nuqtayi nazarlardan amalga oshirilgan. Tasniflarda bitta yoki ikkita omilga asoslanishlar kuzatildi.

O'zbek tilida "harakat", "munosabat", "belgi", "holat", "vaqt" ma'noli abstrakt nomlar guruhlarini ajratish mumkin. "Harakat" ma'noli abstrakt otlar son jihatdan kam bo'lib, asosan, fe'llardan yasalgan otlardan iborat: *izlanish, qoralov, o'zgarish. Do'stlik, dushmanlik, nafrat, ishonch, hurmat, shafqatsizlik, tengsizlik* kabi munosabat nomlari ikki yoki undan ortiq insonlarning bir-biriga nisbatan bo'lgan his-tuyg'ularini ifodalaydi. Munosabat nomlari ko'pincha boshqa ma'nolar bilan qorishiq holda uchraydi.

Belgi ma'noli abstrakt nomlar, asosan, ajratilgan, kuzatish mumkin bo'lmagan sifatni, belgini, xususiyatni nomlaydi. Ular insonning xarakterini, qobiliyatini, etik va estetik tushunchalari bilan bog'liq belgilarini ifodalaydi. *Qattiqqo'llik, mehribonlik, xushomadgo'lik* kabi abstrakt sifatlarda belgi va munosabat oppozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Uch a'zoli belgi+holat+munosabat oppozitiv munosabatlarning neytrallashuvini *vafosizlik* leksemasida kuzatish mumkin: "vafosiz" belgisini, vafo qilmaslik holatini, muyayan bir obyektga nisbatan va'dani bajarmaslik munosabatini bildiradi.

Obyektidan yoki ishtirokchilaridan ajratilgan har qanday holat nomlarida ma'lum darajada abstraksiya mavjud bo'lishiga qaramay, ular abstrakt nom bo'la olmaydi. Bevosita kuzatishda berilmagan, faqat aqliy bilish orqali idrok qilinadigan holat nomlari abstrakt holat nomlaridir. Abstrakt holat nomlari ifodalayotgan holatning obrazi mavjud bo'lmaydi. Mazkur guruhdagi so'zlarni umumiy holat nomlari va xususiyl holat nomlari tashkil etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, D. (2010). *O'zbek tilida antisemiya*. Fil. fan. nomz. diss. Toshkent.
2. Avloniy, A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'qituvchi.

3. Bozorov, O. (1995). *O'zbek tilida darajalanish*. Toshkent: Fan. - 51 b.
4. Doborovich, A. N. (2002). *Yazykovye sredstva reprezentatsii kontseptosfery "Creativity"*. Belgorod.
5. Hakimova, M. (2019). *Leveling lexical abstraction in Uzbek language*. Anglisticum Journal, May, 36–42. <https://www.anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/1918>
6. Hakimova, M. (2021). *Synesthetic metaphor in Uzbek language*. Asian Journal of Multidimensional Research, 10 (3), 495–499. [https://www.researchgate.net/publication/367940852\\_Synesthetic\\_metaphor\\_in\\_uzbek\\_language](https://www.researchgate.net/publication/367940852_Synesthetic_metaphor_in_uzbek_language)
7. Habibullina, E. Kh. (1989). *Sopostavitelnaya kharakteristika abstraktnykh imen sushchestvitelnykh vo frantsuzskom i russkom yazykakh*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Moskva.
8. Ivashenko, O. L. (2002). *Kognitivnye klassifikatory v semanticheskom pole abstraktnykh leksem*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Voronej.
9. Kalinina L.V. (1999). *Semantika i funkcionirovanie abstraktnix sushestvitelnix v forme mnojestvennogo chislo v sovremennom russkom yazike*: Dis. ... kand. filol. nauk. Kirov. –188 s.
10. Komarova, A. M. (1986). *Kategorialnoe sootnoshenie v semantike abstraktnykh sushchestvitelnykh v angliyskom yazyke*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Kiyev.
11. Kryukova, E. I. (1987). *Osobennosti slovoobrazovatelnoy semantiki abstraktnykh sushchestvitelnykh deystviya i sposoby ee vyrazheniya v sovremennom angliyskom yazyke*. Rostov-na-Donu.
12. Mahmudov, N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi*. Toshkent: Mumtoz so'z. -176 b.
13. Mengliyev B.R. (2002). *Lisoniy tizim va unda sathlararo munosabatlar*. Filol. fanlari dok. diss. Toshkent. – 248 b.
14. Nazarova, E. B. (1999). *Razvitie paradigmaticeskikh otnosheniy v slovoobrazovatelnoy kategorii otadjektivnykh "nomina abstracta"*. Saratov.
15. Pavlina, S. Yu. (1997). *Perekhodnye zony v oblasti funkcionirovaniya abstraktnykh i konkretnykh sushchestvitelnykh*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Nijniy Novgorod.
16. Pilipenko, N. A. (2001). *Razvitie abstraktnykh znacheniy u glagolov s pristavkoy voz-/vz- v istorii russkogo yazyka*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Rostov-na-Donu.
17. Qurbonova, M. (2014). *O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi*. Toshkent.
18. Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: UZMU.- 476 b.
19. Rasulov, R. (1989). *O'zbek tilida "holat" fe'llari va ularning obligator valentliklari*. Toshkent: Fan.
20. Setti, A., & Caramelli, N. (2005). *Different domains in abstract concept*. "Proceedings of the 27th Annual Conference of the Cognitive Science Society". <http://www.cogsci.rpi.edu/CSJarchive/Proceedings/2005/dogs/p1997.pdf>
21. Ufimceva, A. A. (1986). *Leksicheskoe znachenie. Printsip semiologicheskogo opisaniya leksiki*. Moskva: Nauka.
22. Umurzoqova, M. (2019). *O'zbek tilida segment qurilmalarning lingvopragmatik tadqiqi*. Toshkent.
23. Vezhbitskaya, A. (1986). *Vospriyatie: semantika abstraktnogo slovarya*. // *Novoe v zarubezhnoy lingvistike* (Vol. 18, pp. 336–369). Moskva.
24. Xakimova, M. (2019). *O'zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi*. Toshkent.
25. Yandiyeva, A. I. (2010). *Lingvosemanticheskaya kontseptosfera abstraktnogo imeni so znacheniem "chest/sovest" v raznosistemnykh yazykakh*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Nalchik.
26. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2005). 1-jild. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
27. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2007). 3-jild. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
28. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2008). 4-jild. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
29. Shaumyan, S. (2002). *Abstraktsiya v sovremennoy lingvistike*. // *Voprosy yazykoznaniya*,

1, 34–57.

30. Cherneyko, L. O. (1997). *Lingvo-filosofskiy analiz abstraktnogo imeni*. Moskva: MGU.

## REFERENCES

1. Abdullayeva, D. (2010). *Antisemia in the Uzbek language*. Dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
2. Avloniy, A. (1992). *The Turkic Garden or Ethics*. Tashkent: Teacher.
3. Bozorov, O. (1995). *Gradation in the Uzbek language*. Tashkent: Science.
4. Cherneyko, L. O. (1997). *Linguo-philosophical analysis of the abstract noun*. Moscow: Moscow State University.
5. Doborovich, A. N. (2002). *Linguistic means of representing the conceptosphere "Creativity"*. Belgorod.
6. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. (2005). *Vol. 1*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
7. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. (2007). *Vol. 3*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
8. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. (2008). *Vol. 4*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
9. Habibullina, E. Kh. (1989). *Comparative characteristics of abstract nouns in French and Russian*. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Moscow.
10. Hakimova, M. (2019). *Leveling lexical abstraction in the Uzbek language*. *Anglisticum Journal*, May, 36–42. <https://www.anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/1918>
11. Hakimova, M. (2021). *Synesthetic metaphor in the Uzbek language*. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(3), 495–499. [https://www.researchgate.net/publication/367940852\\_Synesthetic\\_metaphor\\_in\\_uzbek\\_language](https://www.researchgate.net/publication/367940852_Synesthetic_metaphor_in_uzbek_language)
12. Ivashenko, O. L. (2002). *Cognitive classifiers in the semantic field of abstract lexemes*. Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Voronezh.
13. Kalinina L.V. (1999). Semantics I functionirovanie abstraktnix sushestvitelnix v forme mnojestvennogo chislo v sovremennom russkom yazike: Dis. ... village. philol. nauk. Kirov. -188 P.
14. Komarova, A. M. (1986). *Categorical correlation in the semantics of abstract nouns in English*. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Kiev.
15. Kryukova, E. I. (1987). *Features of word-formation semantics of abstract action nouns and ways of their expression in modern English*. Rostov-on-Don.
16. Mahmudov, N. (2017). *The study of the secret of language*. Tashkent: Mumtoz So‘z.
17. Mengliev B.R. (2002). The linguistic system and Inter-level relations in it. Philol. Sciences dock. diss. Tashkent. – 248 p.
18. Nazarova, E. B. (1999). *Development of paradigmatic relations in the word-formation category of adjective-derived "nomina abstracta"*. Saratov.
19. Pavlina, S. Yu. (1997). *Transitional zones in the functioning of abstract and concrete nouns*. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Nizhny Novgorod.
20. Pilipenko, N. A. (2001). *Development of abstract meanings in verbs with the prefix "voz-/vz-" in the history of the Russian language*. Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Rostov-on-Don.
21. Qurbonova, M. (2014). *Sociopsycholinguistic study of the vocabulary of Uzbek children's speech*. Tashkent.
22. Rasulov, R. (1989). *Verbs of "state" in the Uzbek language and their obligatory valencies*. Tashkent: Science.
23. Rakhmatullayev Sh. (2006). Current Uzbek literary language. Tashkent: UZMU.- 476 p.
24. Setti, A., & Caramelli, N. (2005). *Different domains in abstract concept*. In *Proceedings of the 27th Annual Conference of the Cognitive Science Society*. <http://www.cogsci.rpi.edu/CSJarchive/Proceedings/2005/dogs/p1997.pdf>

25. Shaumyan, S. (2002). *Abstraction in modern linguistics*. *Questions of Linguistics*, 1, 34–57.
26. Ufimceva, A. A. (1986). *Lexical meaning: The principle of semiological description of vocabulary*. Moscow: Nauka.
27. Umurzoqova, M. (2019). *Linguopragmatic study of segment structures in the Uzbek language*. Tashkent.
28. Vezhbetskaya, A. (1986). *Perception: Semantics of the abstract vocabulary*. In *New in Foreign Linguistics* (Vol. 18, pp. 336–369). Moscow.
29. Xakimova, M. (2019). *Semantics of abstract nouns in the Uzbek language*. Tashkent.
30. Yandiyeva, A. I. (2010). *Linguo-semantic conceptsphere of abstract nouns with the meaning “honor/conscience” in languages of different systems*. Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Nalchik.